

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11607919>

ABUL-QOSIM MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING AXLOQIY VA PEDAGOGIK QARASHLARI

Shomurotova Nilufar Davronbek qizi

Urganch Davlat Universiteti Pedagogik

a fakulteti Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 212-guruh talabasi

Yangiboyev Sanjarbek

Urganch davlat pedagogika instituti 2 bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali siz Abul-Qosim Az-Zamaxshariyning hayot va ijod yo‘li, axloqiy qarashlari, ilm-ma‘rifat g‘oyalari haqida bilimlarga ega bo‘lasiz. Az-Zamaxshariyning nutq madaniyati va to‘g‘rilik, poklik to‘g‘risidagi qarashlarini hozirgi kunda qay darajada dolzarbligini ko‘rib chiqasiz. Ilmli kishining xususiyatlari, insoniylik haqida qimmatli ma‘lumotlarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘z: *Az-Zamaxshariy, halollik, xulq-atvor, axloq, pandnoma, nodonlik, johillik, ilm-ma‘rifat g‘oyalari, kamolot, poklik, vafo.*

Kirish: Abul-Qosim Mahmud az-Zamaxshariyning to‘liq ismi Abul-Qosim Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad bo‘lib u hijriy 467-yilda rajab oyining yigirma yettinchisida chorshanba kuni (milodiy hisobda 1075-yilning 19-martida) Xorazmning katta qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud topgan. Bu haqida uning o‘zi ham shunday yozadi: «Faqir, Xorazm qishloqlaridan biri Zamaxsharda tavallud topganman.» Tarixchilarning bergan ma‘lumotlari va az-Zamaxshariyning g‘azal va qasidalariga asoslanib, uning yoshligi va oilasi haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lish

mumkin. Uning oilasi qishloqda taqvo va halollik bilan oʻrnak boʻla oladigan darajada edi. Az-Zamaxshariyning otasi unchalik badavlat boʻlmasada, lekin oʻz davrining savodli, ancha taqvodor, diyonatli kishi boʻlgan. U aksar vaqtini Qurʼoni karim tilovati bilan oʻtkazardi. Zamaxshardagi bir masjidida imomlik ham qilgan. U xulq-atvori yaxshi, shirin suxan va gʻoyatda muruvvatli kishi boʻlib, bu fazilati bilan el orasida katta hurmat eʼtibor qozongan. Oʻz oilasi aʼzolarini ham shu yaxshi xislatlar bilan tarbiyalashga harakat qilardi. Shu sababli ham uning oilasi jamoat oldida aytib oʻtganimizdek oʻrnak boʻlar edi. Zamaxshariyning nozik iboralariga nazar tashlasak va ularni chuqurroq tahlil qilsak uning didaktik mohiyati, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati va umuminsoniy gʻoyalarning oʻziga xos tarannumiga guvoh boʻlamiz. Masalan bu hikmatlarda asosiy oʻrin ilmi boʻlishga intilish, adolat mezonlarini ushlab ushlab ahamiyati, ota-onaga xurmatning insonda shakllangan boʻlishligi, insonda ilm va axloq muvozanatining ahamiyati, qanoatli boʻlishlik, ezgulikka xizmat qila olishlik, halollik va poklikni qadrlash kabi bir-biridan muhim boʻlgan umuminsoniy mohiyat kasb etgan gʻoyalarning inson hayotidagi, uning ikki dunyo saodatiga erishishidagi ahamiyati masalasi tahlil qilinadi. Zamaxshariy taʼkidlashicha, "... insonga doimo ilmi, adabli, taqvodor boʻlishni, boʻlar insonga eng mehribon ota-ona kabi yaqin boʻlishini uqtiradi. Ota-ona oʻz farzandlariga doimo yaxshi niyat qilib, ularga ezgulik tilaganlari kabi, ilm, adab va taqvo insonga toʻgʻri yoʻlni koʻrsatadi". Az-Zamaxshariy oʻz pedagogik qarashlarida axloq muammolarini ratsionalistik nuqtai nazardan hal qilishga intiladi. Inson oʻz xatti-harakati, yurish-turishida, aql-idrokka tayanishi lozimligi uning pand-nasihatlari va aforizmlarida muhim oʻrinni egallaydi. Allomaning fikricha, «har qanday mushkul ish aql egalari tufayli isloh qilinur, chunonchi yeru koʻk faqat oʻz tegrasi qutblari atrofida aylanur». Insonning oʻz xatti-harakatida aql amriga qarab ish tutishi, aql-idrok va tafakkurning oʻrni, ayniqsa, ilmni egallash, taʼlim-tarbiyaga oid fikrlarida yaqqol koʻzga tashlanadi. «Yoki ilmiy boʻl, yoki ilmga tayanib ish tutadigan boʻl, loqal ilmni tinglab eshitadigan boʻl, biroq toʻrtinchisi boʻlma, chunki kasodga uchrab halok boʻlasan (juvonmarg boʻlasan)», deydi olim. Az-Zamaxshariy ilmning jamiyatdagi oʻrni, barkamol va komil insonlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini toʻgʻri

tushunib yetdi. Olimning ta'kidlashicha, ilgari zamonlarda ilm-fan qadrlangan, olimlar «podshohlaridan o'z og'irliklari barobar oltin hadya» olganlar, keyingi davrlarda ilmning qiymati kamayib, «nodonlar olimlardan ortiq ko'riladigan bo'lib qoldi».

Az-Zamaxshariy risolalarida nodonlik, johillik va savodsizlikni qattiq tanqid qiladi, ularni insonning eng tuban illatlaridan hisoblaydi. «Ilmli bo'lish bir baland toqqa chiqish kabi ko'p mashaqqatlidir, lekin undan tushish osondir, johilligu nodonlik bulog'i chuqur chashma misoli bo'lsa-da, biroq u ko'p qiyinchiligu azoblarga giriftor qiladi». Donishmand insonning halol mehnat qilib, shuning evaziga kun ko'rishi lozimligini uqtiradi. Kishi biror kasb bilan mashg'ul bo'lishi, mashaqqatli mehnat qilishga yoshlikdan o'rganishi lozim. «Dehqonchilik qilib ziroat ekish foydayu xayr-baraka birla mushtarakdir, o'z xalqini behad ko'p xayr-barakaga burkaydir», deb dehqon mehnatini ulug'laydi, ularni jamiyatdagi eng hurmatli toifalar qatoriga qo'shadi. Olim umri davomida mo'taziliylikning adolat va haqiqat to'g'risidagi g'oyalarini yanada rivojlantirdi, axloqiy qadriyatlarni kishilararo munosabatlarda mustahkam joy olishi uchun kurash olib bordi. Uning zamondoshi - mashhur shoir Rashiduddin alVatvot «hatto o'ziga zarar bo'lsa-da, u doimo adolat yuzasidan ish tutar edi», deb aytgan edi. Az-Zamaxshariyning fikricha, Alloh taolo tog'u toshlarni, butun tirik mavjudotlarni, dengizu sahrolarni yaratgan. U insonning qilmishidan, yurish-turishidan doimo ogoh bo'lib turadi. Bas, shunday ekan, inson bu dunyoda xayrli ishlar bilan shug'ullanishi, odil bo'lishi, yomonlik va yovuzlikka qarshi kurash olib borishi, haqiqat tarafdori bo'lishi kerak. «Barcha ishlardan ogoh Alloh taoloni hech bir ishingda nazaringdan qochirib, unutma, har bir tasarrufingda odil bo'lib, birovga zulm qilma, deydi olim. Az-Zamaxshariy ayniqsa, davlat arboblari, hokimlarni adolat va haqiqat yo'lidan borishga, xalqqa ziyonzahmat qilmaslikka, jabr-zulm yetkazmaslikka chaqirdi. «Haqiqat va adolat bilan to'g'ri siyosat yurgizmagan har bir rahbar va boshliq, - deb ta'kidlaydi alloma, - qattiq azob-uqubat va baloga giriftor bo'ladi». Lekin olim zamonasidan zorlanib, ko'pchilik haqiqat yo'lidan bormayotganligini, va'dasiga vafo qilmayotganligini alam bilan yozadi. Bulardan qat'iy nazar, u haqiqat g'olib kelishiga ishonadi. «Quyosh nurlarini berkitib bo'lmaganidek, haqiqatning

chirog'ini ham so'ndirib bo'lmas1, deydi donishmand. Donishmand yirik tilshunos sifatida, nutq madaniyati va o'zaro muomala qoidasiga katta e'tibor beradi. Uning odamlarga qo'ygan birinchi talabi ko'p so'zlamaslikdir, zeroki, mahmadonagarchilik o'zgalarga yoqmaydi. «Ko'p so'z va takabburlik kechirilmas,- deb ta'kidlaydi Az-Zamaxshariy, ya'ni ko'p so'zlashuv sababli eshituvchi ranjir, oni hech afv qilmas». Shuning uchun har bir odam boshqalar oldida o'zini tuta bilishi, fikr-mulohaza yuritib, ko'p gapirishdan o'zini tiya bilishi zarur. «Agar tilingni saqlay olmasang, tizgining uchini shaytonga topshirgan bo'lasan. Tilingni saqla, ortiq so'zlama» - deydi mutafakkir. Ko'p gapirish, safsatabozlik inson qadrini yerga uradi, noxush oqibatlariga olib keladi. Uning aytishicha, tan jarohatini tuzatsa bo'ladi, lekin til jarohatini tuzatib bo'lmaydi. Az-Zamaxshariy to'g'rilik va poklikni ulug'laydi, ularni insonning eng yaxshi fazilatlarini sirasiga kiritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari “ fanidan o'quv-uslubiy majmua. Urganch-2023
2. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy.- T.: Fan, 1971.
3. Uvatov U. Xorazmlik buyuk alloma. -T.: Yangi asr avlodi,2006. B.25
4. Xodjaniyazov S.U.Xorazm mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. O'zbekiston Res'ublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – T.: MCHJ “Lesson ‘ress” nashriyoti, 2021.